

1

- Kishi hayotida shunday voqealar bo'ladi, umrbod xotiridan ko'tarilmaydi, - deb hikoyasini boshladi Aziz Komilov. - Ularni eslaganingda dam sevinasan, dam qayg'urasan. Bundan yetti-sakkiz yil muqaddam mening boshimdan ham shunday bir voqeа kechdi. O'shanda men o'qishni tamomlab, Qishloq xo'jalik ilmiy-tekshirish institutida ishlardim. Bu institut, bilsangiz kerak, deyarli hamma paxtakor respublikalar bilan, hatto chet ellar bilan paxtachilikni rivojlantirish bobida aloqa qiladi, paxtaning yangi navlarini yetishtirib beradi. Institutning bir qancha ilmiy xodimlari Misr, Jazoir, Yaman va boshqa bir necha mamlakatda ishlashardi. Men ularni tanirdim, otpuskaga kelishganda ularning hikoyalarini maroqlanib eshitardim, ularga havasim kelardi. Lekin bu sohadagi ishda qali o'zini durust ko'rsatmagan yosh agronomni olis, o'zga mamlakatga kim yuboradi? Bunga umid bog'lab bo'larmidi?! Har qalay, men shunday deb o'ylardim va o'zimni shu bilan ovutardim. Ammo bunday bo'lib chiqmadi. Bir kuni meni institut direktori chaqirib qoldi:

- Sizni Bolgariyaga yubormoqchimiz. Nima deysiz? - dedi u.

To'satdan qilingan bu taklifdan gangib, nima deyishimni bilmay qoldim.

- Xaskovdan 108-Fni so'rashibdi, - javobimni kutmasdan gapida davom etdi direktor. - Yangi ochilgan yerlariga ekishar emish. Olib borasiz, ekishda ko'maklashasiz. Mavsumni tugatib qaytasiz.

- Eplay... eplay olarmikinman? - vujudimni ham sevinch, ham qo'rquv qamrab olgandi.

- Eplaysiz, b'T"dedi direktor va gap tamom deganday o'rnidan turib, menga qo'l uzatdi.

Mast odamdek uning kabinetidan chiqdim.

- Tabrikayman, - dedi sekretarKj qiz menga havas bilan tikilib. - Kecha kimni yuborishni o'ylab ancha o'tirishdi. Keyin sizni lozim topishdi!

- Rahmat! - dedim minnatdorlik bilan, go'yo meni u yuborayotganday mahkam bilaklarini qisib. - Kachon ketaman?

- Bir haftadan so'ng. Hujjatlariningizni to'g'rilang. Boshim osmonda edi. O'sha kuniyoq shosha-pisha hujjatlarimni tayyorladim, suratga tushdim. Keyin uyg'a jo'nadim. Uyimiz institutdan ancha olis bo'lib, ikki haftada bir borib kelardim. Otam urushda halok bo'lган. Uyda oyim bilan singlim turishadi. Sevinchli xabardon ular ham shoshib qolishdi. Singlim darhol kiyim-kechaklarimni hozirlashga tushib ketdi. Ovqat yeb bo'lismagan bo'lsa ham, men hozir ketayotgandek, yangitdan ovqatga unnashdi.

Xullas, bir hafta safar orzuvida o'tib ketdi. Urug'liliklarni jo'natdik. Rahbarlarimdan kerakli maslahatlar, kitoblar oldim. Hafta oxirida o'rtoqlarim, hamkasblarim bilan quyuqqina xayrlashib, Moskvaga jo'nadim. Ikki kundan keyin esa Bolgariya tuprog'iga qadam qo'ydim.

2

Bolgariya ajoyib mamlakat. Bir borgan kishi uning maftuni bo'lib qoladi. Ko'ko'par tog'lar, qishin-yozin zumrad o'rmonlar, goh birlashib, goh ajralib oqadigan kumush daryolar bu o'lkanning husni, g'ururi. Uning qishloqlari, yo'llarini aytmaysizmi? Ikki yoqasi olma-gilos yoxud olxo'i, bu yo'llardan o'tganda, o'zingizni cheksiz mevazor ichida borayotgandek sezasiz. Hech kutilmaganda qishloq ustidan chiqib qolasiz. Qishloqlar bir-biriga o'xshamaydi, hammasining o'ziga xos arxitekturasi bor. Bir qishloq ikki qavatlil jimjimador uylardan iborat bo'lsa, ikkinchisi uning teskarisi - uylarning yarmi yo'lning pastida, keng ayvonli, yassi, aylanma zinalardan tushiladi. Ba'zi uylarning tomiga garaj qurilgan. Hammasiga odamning havasi keladi, hammasi bejirim, chiroli. Shaharlari ham xuddi shunday. Butun Bolgariyani aylanib, bir-biriga o'xshagan ikkita binoni topish qiyin. Xullas, bu mamlakatda hamma narsa - yer ham, suv ham, havo ham go'zal, maftunkor. Bolgarlar o'z yurtlari haqida shunday rivoyat to'qishgan Xudo hammaga yer ulashib, bolgarlarni unutibdi. Ular xafa bo'lib Xudoga arz qilishibdi. Xudo jannatning bir bo'lagini kesib, bolgarlarga beribdi.

Bu rivoyat. Ammo dunyoda jannat deyiladigan joy bor bo'lsa agar, u Bolgariya, uni bolgarlar o'zları yaratgan. Shuning uchun ham dunyoning har burchagidan bu yerga dam olgani, tomosha qilgani har yili ming-minglab odamlar kelishadi, uni ko'rib, o'zlarini baxtiyor his qilishadi.

Men ham shunday baxtiyorlardan edim. Xaskovoda bir yil ishладим. Kooperativ xodimlari mendan xursand edi. Men ham ulardan xursand edim. 108-F yaxshi undi. Yaxshi hosil ko'tarildi. Shu vaqt ichida men bolgarcha tushunadigan, hatto uncha-muncha gaplashadigan bo'lib qoldim, anchagina do'st orttirdim. Ayniqsa, kooperativ agronomi Yordan Konev bilan juda qalin bo'lib ketdik. U ikki yil Boyovutda ishlab ketgan ekan. Ikki gapning birida o'zbeklarning mehmondo'stligini maqtar va Boyovutda kechgan hayotini zavq bilan eslar edi.

Paxta ikki marta terib bo'lingach, mening ishlarim ancha yengillashdi. Ko'p vaqtimni okrugning xushmanzara yerlarini ko'rish, cho'milish bilan o'tkaza boshladim.

Bir kuni ertalab nonushta qilib o'tirgan edim Yordan kolib qoldi.

- Tabrikayman, do'stim! - dedi u qarshimga o'tirar ekan.

- Nima bo'ldi? - hayron bo'lib so'radir men.

- Kooperativ bizga ko'rsatgan yordaming uchun seni bir oyga Zlatni Pyassiga yuborishga qaror qildi.

- Nahotki? - sevinib ketdim.

- Bu yog'ini eshit, - Yordan qo'lini ko'tarib, meni to'xtatdi. - U yokda bir o'zing zerikib qolma tag'in deb, men ham boradigan bo'ldim.

Yosh boladek chapak chalib yubordim.

- Ertalab yo'lga tushamiz. Tayyorgarligingni ko'raver. Yordan shunday dediyu, shoshib chiqib ketdi. Kechqurun kooperativ bog'ida ziyofat bo'ldi. Kooperativ a'zolari nomidan direktor gapirib, menga va institutimizga minnatdorlik bildirdi. Ertasiga esa, tonggi salqinda Yordanning mashinasida Yordan, uning xotini Lada, ikki yoshli o'g'li Matey va men Qora dengiz tomon jo'nadik. Oqshom payti dong'i jahonga taralgan Zlatni Pyassiga kirib bordik.

Zlatni Pyassi Bolgariyaning yirik port shahri Varnadan o'n olti kilometr nari bo'lib, tog' va dengiz oralig'iga joylashgan kurort shahar. Kimdir bu shaharni jahonning kelajagi, degan ekan. Bu fikr haqiqatdan yiroq emas. Butun shahar gulga o'ralgan. Har qadamingizda meva... bir yoqda gilos, bir yoqda olma, uzumzorlari baland qoyalarga chirmashib ketgan. Aqlni shoshiradigan sayilgohlar, istirohat bog'lari, bir-biridan go'zal hovli-joylar, mehmonxonalar ko'zni qamashtiradi.

Biz shahar o'tasidagi "Nimfa" mehmonxonasiga joylashdik. Bu mehmonxona shunday sohilda bo'lib, dengizdan atigi ellik qadamcha narida edi. O'z xonamga kirib yechindim, keyin balkonga chiqdim. Muzdek dengiz nafasi gup etib dimog'imga urildi. To'yib simirdim-da, dengizga qaradim. Ko'm-ko'k osmon bilan tutash moviy dengiz tinch, sokin edi. Botib borayotgan quyosh

nurlaridan u atlasdek tovlanib, ko'zni olardi. Yengil shamol turdi. Kamalak tus to'lqin ohista suzib kelib, qirg'oqqa urildi. Sohildagi oltin rang qumni nam qildi, keyin shunday ohista qaytib ketdi. Yana keldi, yana qaytdi. U xuddi tun bo'yli ov qilgan, ammo hech narsa topolmay charchab tin olayotgan sherga o'xshardi.

Yordan kirdi.

- Qalay?

- Zo'r, - dedim hamon dengizdan ko'z uzmay.

- Ovqatdan so'ng cho'milamiz. Nima deding? Men xo'p deganday boshimni qimirlatdim.

Ko'p o'tmay, restoranga tushdik. Odam kam edi. Burchakda ikki qiz va bir yigit o'tirishardi. Zal o'rtasida orkestr qandaydir mayin kuy chalardi. Ofitsiant keldi.

- Mole?

- Meshana skara, rakiya, - dedi Yordan hozirjavoblik bilan.

U meni ham o'zi kabi bu ajoyib qovurma taomni va olxo'ridan tayyorlanadigan aroqni yaxshi ko'rishimni bilardi. Ofitsiant ketishi bilan qayoqdandir sho'x ayol kulgisi eshitildi. Zalga qaradim. Kichkinagina Matey g'alati qiliqlar bilan raqs tushardi.

Orkestrdagilar kuyni tezlashtirishdi, Matey yanada sho'x o'ynay boshlad. Yana ayol kulgisi eshitildi. U juda tiniq va jarangdor edi. Men qizlarga bir-bir qarab chiqqdim. Dengizga qaragan ochiq deraza tagida bir yigit va ikki qiz o'tirardi. Kulayotgan shu qizlardan biri edi. Lekin qaysi birlilagini ajrata olmadim. Ikkovining ko'zi Mateyda bo'lib, yuzlarida tabassum o'ynardi. Ikkalovi bir xil yengsiz oq kofta kiygan. Biri qora-mag'iz, ammo sochi (bo'yangan bo'lsa kerak) oppoq, ikkinchisi esa, oq badanu, qosh-ko'zi qora, qubba qilib tugilgan qalin sochi zuluqdek edi. Shu ikkinchi qiz ro'parasida sigaret chekib o'tirgan yigit allanima deb kuld. Keyin boshini qimirlatdi. Qiz chaqqon o'rnidan turib, do'mboq qo'llarini yozib o'nayotgan Mateyga yaqinlashdi va unga sho'x tikilganicha raqsga tushib ketdi. Xuddi shuni kutib turgandek, orkestr o'ynoqi bir kuyni chalib yubordi. Qiz Mateyni quchoqlab olib, zalni aylana ketdi. Oq havo rang shim uchun, kelishgan oyoqlariga chippa yopishgan, koftasi xipcha belini tarang tortib turardi. Ingichka, oppoq bo'ynidan mahkam quchoqlab olgan Matey o'zida yo'q shod, qiqir-qiqir kulardi. Qiz sheriklari yoniga kelganda nimadir dedi. Yana quvnoq ayol kulgisi eshitildi. Bu shu qizning o'zi edi. Kulgi aralash yana bir nimalar dedi-da, Mateyni yerga qo'yib, qo'llaridan ushlagancha raksga tushib ketdi.

- Tuzuk-ku, - dedim men unga mahliyo bo'lib. Lada mening gapimni o'zicha tushunib:

- Yotsirashni bilmaydi, - dedi.

Orkestr tindi. Hammamiz, hatto orkestrdagilar ham beixtiyor chapak chalib yubordik. Qiz Mateyni yetaklab stolimiz yoniga olib keldi. Keyin:

- Mersi, musKje, - dedi-da, qo'lidan o'pib, Yordanga tutqazdi.

Uning ovozi yoqimli, qo'ng'iroqdek edi. Biz unga biron narsa deguncha joyiga borib o'tirdi.

- Taklif qilsak bo'lardi stolimizga, бТ"dedi Lada eriga.

- Sen nima deysan? - Yordan menga qaradi.

- Chakki bo'lmaydi, - dedim men. - Lekin chaqirsak hammasini chaqiraylik.

- Bu ishni manavi musKjega topshiramiz. - Yordan shunday deb, o'g'liga ularning stolini ko'rsatdi. - Ikkala opangni qo'lidan ushlab olib kel. Amaking o'zi keladi.

Matey dadasi aytgandek qildi. Ko'p o'tmay, ikki stolni birlashtirib yangitdan ovqat, ichimlik buyurdik. Keyin tanishib oldik. Yigit - Dragomir Shopov Bolgariya grajdani flotida shturman ekan. Oq soch qiz uning qaylig'i - Lili, styuardessa. Matey bilan raqs tushgan qiz esa Anna-Mariya. U ham styuardessa bo'lib, Vengriya grajdani havo flotida ishlarkan.

- Anna-Mariya eski qadronimiz, - deb izoh berdi Dragomir. - Otpuskani bizda o'tkazishni iltimos qiluvdik, keldi. "Neptun"da turibmiz.

Yordan meni tanishtirdi.

- Ph, PÿPsC€PePµPSC,, PÿP°PjP°CТPeP°PSPr? - havas bilan dedi Anna-Mariya, - C...PsCТPsC€Ps!

Uning oppoq tishlari marvarid donalariga o'xshardi.

- Borganmisiz?

Anna-Mariya yo'q, deya boshini qimirlatdi.

- PкPs PsC‡C‡PµPS-PS, PsC‡C‡PµPS-PS PiPs-P±PёPIP°C,CH...

U ruscha to'g'ri gapirdimmi, deganday Dragomirga qaradi.

- To'g'ri, - dedi Dragomir. Keyin menga ishora qilib, qo'shib qo'ydi. - Mana, yaxshi tanish orttirdik. Bu kishi faqatgina ruschani emas, o'zbekchani ham o'rgatib qo'yadi.

- Qiziqish bo'lsa bas, - dedim men. - Marks o'n kunda lotincha o'rgangan ekan.

- O, - kuldil Anna-Mariya, - Marks qayoqdayu, men qayokda?

Hammamiz unga qo'shilib kuldik.

- Qani, tanishganimiz uchun, - dedi Yordan o'z qadahini ko'tarib.

Hammamiz ichidik. Anna-Mariya men bilan qadahni urishtirayotib g'alati tabassum bilan qarab qo'ydi. Uning yirik qora ko'zlarida sevinch porlardi. "Juda sho'x, quvnoq bo'lsa kerak", - xayolimdan o'tkazdim men.

Chindan ham butun suhabatimiz davomida uning chehrasidan tabassum arimadi. Kimga qaramasin, ko'zlar, lablarida kulgu o'ynardi. Ozgina qizishib olnamizdanmi, suhabatimiz qizg'in tus olib ketdi. Nimalar haqida gaplashganimiz hozir esimda yo'q. Har holda, ancha o'tirdik. Suhbatga faqat Anna-Mariya aralashmadi. U goh Mateyni tizzasiga olib erkalar, goh o'zidan-o'zi menga qarab kulib qo'yardi. Men nimalarnidir gapirsam ham, ko'zim unda edi. To'g'rirog'i, nigohim ko'pincha unga tushardi. Nega bunday? Men buni o'sha payt bilolmadim. Lekin bir narsa aniq edi bunaqa chiroqli qizni men hali uchratmagandim. Nazarimda, u bizning oldimizga to'ppa-to'g'ri ajoyib sevgi haqidagi kitobdan yo bo'lmasa olis bir afsonadan tushib kelganday edi.

Bir mahal u shoshib o'rnidan turdi.

- Mircho! - U Dragomirga fransuzchalab allanima dedi-da, soatini ko'rsatdi.

- Bizni kechirasizlar. - Dragomir o'rnidan turdi. - Anna-Mariyani Budapeshtdan onasi telefonga chakiribdi.

- Uchrashguncha, - dedi Lili.

Anna-Mariya boshini qimirlatib xayrashdi. Ko'p o'tmay, biz ham turdik.

- Yaxshi qizlar ekan, - dedi Lada ko'chaga chiqqanimiz-da. - Ayniqsa, Anna-Mariysi.

- Yigit ham durust, - deb unga qo'shildi Yordan. Men indamadim. Sohilga tushdik. Ming xil chiroqlar og'ushida sokin dengiz bo'yli

hozirgina Anna-Mariya tushib kelgan afsonaviy shaharga o'xshardi. Anchagina aylandik. Matey otasining qo'lida uxbab qoldi.

- Xursandmisan? - so'radi Yordan mehmonxonaga yetganimizda.

- Juda, - dedim men.

Chindan ham xursand edim. Yuragimni sevinch va allaqanday shirin orzular qoplagan, hech narsani o'ylagim, istagim kelmasa ham xayolimda o'zim tushunmagan fikrlar, orzular kezardi.

Yordanlar bilan xayrashib (ular odamlarni bezovta qiladi, deb Mateydan cho'chib birinchi qavatga joylashgan, men esa o'ninch qavatda edim), o'z xonamga ko'tarildim. Yotgim kelmadi. Balkonga chiqdim. Dengizda baland-past to'lqinlar paydo bo'lgan, allaqaerda muzika yangrardi. Birpas dengizni, o'rkach-o'rkach to'lqinlarning qirg'oqqa urilishini, son-sanoqsiz yulduzlar uchayotganini tomosha qilib, o'rninga cho'zildim. Yuragimni qoplagan sevinch va qandaydir baxt hissi hamon tarqalmas, ko'z oldimdan esa yangi tanishlarim, Anna-Mariyaning kulib turgan siyomosi ketmasdi. Ko'p o'tmay olis yo'l mashaqqati o'z ishini bajardi, uxbab qoldim.

3

Ertalab endi tong yorisha boshlaganda Yordan eshigimni taqillatdi.

- Tur, - dedi u xonaga kirib, ustimdan choyshabni tortar ekan. - Cho'milib kelamiz.

Uning egnida plavki va olachipor ko'ylik bor edi, xolos. Men ham shunday kiyinib, qora ko'zoynagimni taqdim-da, pastga tushdik. Yumshoq, nam qum oyoqqa chilp-chilp yopishardi. Hali chiqmagan quyoshning qizg'ish nurlari osmonga nayza kabi sanchilgan, dengiz ohista qirg'oqqa urilib, sherdek pishillardi.

- Ko'ryapsanmi? - dedi Yordan dengizda, qirg'oqdan ikki yuz qulochcha narida qaqqayib turgan qora qoyani ko'rsatib. - Shunga borib kelamiz. Ketdik!

U dengizga sho'ng'idi. Muzdek suv tomchilari yuzimga urildi. Seskanib ketdim. Birpas sovib olay, deb shunday dengiz labiga o'tirdim. Yordan ancha joyga borib, menga o'girildi.

- Tushmaysanmi?

- Hozir, - qo'limgi silkidim.

Shu payt men tomon oqib kelayotgan dumaloq, oppoq bir narsaga ko'zim tushib qoldi. U xuddi koptokka o'xshardi. "Nima bo'lidiykin?" - ko'zoynagimni olib, unga tikildim. Koptok oqib kelaverdi. Ancha yaqinlashdi. O'rnimdan turib qaradim. Bu - odamning boshi edi. Ko'zlar yumilgan, qo'l-oyoqlari dengiz ostida juda tinch, sharpasiz va erkin harakat qilardi. Havas bilan tomosha qilib turdim. Qirg'oqqa ozgina qolganda u o'rnidan turib, men tomon o'girildi. "Kim ekan bu suv parisi?" - dedim o'zimga undan ko'z uzmay. U oyoqlari ostidagi svuni shaloplatib, qirg'oq tomon yurar ekan, menga parvo qilmasdi. Men esa unga tikilib qolgan edim. Qaddi-qomati bunchalik raso, kelishgan qizni kamdan-kam uchratish mumkin. Ingichka oq plavki ingichka belini tarang tortgan, har qadam bosganda oftob birozgina qoraytirgan silliq badanidan suv tomchilari duv-duv to'kilardi. Plavki tusidagi ingichka oq mato ostida sovqotgan dumaloq ko'kraklarining uchi ikkita ko'zmunchokdek qorayib turardi. Sohilga chiqib, boshidagi oppoq qalpoqchasini oglanda qalin qora sochlari nozik yelkalari bilan bitta bo'lib yoyildi. Sevinib ketdim. Bu - Anna-Mariya edi.

- Qalay, suv yokdimi? - Men u tomon yurdim.

- O, sizmisiz? - Anna-Mariya tishlarini yaltiratib jilmaydi. - Suv juda yaxshi.

Biz ko'rishdik.

- Siz ham ertalab cho'milishni yaxshi ko'rasisizmi?

- Juda ham.

Anna-Mariya o'tirdi. Men ham uning yoniga cho'kkaladim. Ertalab odam kam bo'ladi sohilda, ba'zan hech kim bo'lmaydi.

- Tinchlikni yaxshi ko'rар ekansiz-da? Anna-Mariya kuldii.

- Tinchlikni ham, tiniq svuni ham. Ertalab suv juda toza bo'ladi, muzdek bo'ladi. Siz nega cho'milmaysiz?

- Cho'chiyapman.

- Nimadan? - u ko'zlarini yirik ochib, menga qaradi. - Suzishni bilmaysizmi?

- Har holda, sizchalik emas. Yaxshi suzar ekansiz.

- O, men Dunayni suzib o'tganman.

- Oho-ho-ho! - qoya ustidan Yordaning ovozi keldi. U bizni chaqirdi.

- Kim? - so'radi Anna-Mariya.

- Yordan.

- Yuring, boramiz.

Anna-Mariya sakrab turdi-da, menga qo'lini uzatdi.

- Yuring, - dedim men ham uning zavqiga qo'shib. Ikkalamiz yonma-yon suzib ketdik. Men yomon suzmasdim.

Lekin Anna-Mariyachalik emas. U dam yonboshlab, dam bir qo'llab suzar ekan, xuddi delKjifinga o'xshardi.

Qoyaga yetib kelganimizda Yordan unga qo'lini uzatdi.

- Mana, - dedim men. - Bir o'zim emas, suv parisini ham olib kelyapman.

Anna-Mariya xaxolab kuldii.

- Oltinsoch Loreleya degin! - dedi Yordan.

- O, yo'q, - dedi Anna-Mariya sochini siqar ekan. - Uni men tushunaman, lekin unga o'xshagim kelmaydi.

- O'h-ho'! - xayolimdan o'tkazdim men. - O'z qadrini yaxshi biladiganga o'xshaydi". Keyin ovozimni chiqarib dedim - Bizning davrimizda muhabbatdan hech kim zarar ko'rgan emas. Nima, qo'rqaqizmi?

- Yo'q, - Anna-Mariya jiddiyashdi. - Sevgidan qo'rqlayman, uning oqibatidan ko'rqlaman.

- Shuning uchun...

- Shuning uchun qaytamiz, - gapimni kesdi u birdan o'zgarib. - Nonushta vaqtim bo'ldi.

U bizni kutmay, suvga sho'ng'idi. Sohilga qaytishdan boshqa ilojimiz qolmadni.

- Kurort joyda jiddiy suhabatni qo'y, - dedi Yordan suvdan chiqqanimizda.

Men qizarib ketdim. Lekin ayb mendami? O'zi boshladi-ku? Gapimni tasdiqlamoqchidek, atrofqa qaradim. Ammo Anna-Mariya hech yerda ko'rinnmasdi. Nahotki, xafa bo'lgan bo'lsa?

- Juda bo'lmasa xayrashsa bo'lardi, - dedim o'zimni oqlashga urinib Yordanga.

Yordan yelkalarini qisdi.

Shu kuni kechgacha uni va sheriklarini ko'rmasidik. O'zimiz ham ularni ko'rishga oshiqmadik. Nonushtadan so'ng Yordanning mashinasiga o'tirib, Zlatni Pyassini aylanib chiqdik. "Lo'lilar chodiri", "Kukari", "Tegirmon" kabi restoranlarni tomosha qildik. Bolgarlarning mehnatsevarligiga qoyil qoldim. Oddiy materiallardan ham shunday ajoyib sayilgoh, mehmonxonalar, restoranlar qurib tashlashginki, ko'rib to'yamsiz. "Lo'lilar chodiri"da bironta stol yoki stul yo'q. Stol o'rnida arava, stullar esa egarlardan iborat. Tabiiy bo'lishi uchun bir-ikkita aravaga ot, eshak bog'lab qo'yilibdi. "Kulibi" degan restoran esa faqat qamishdan, o'zimizning oddiy qamishdan bo'lib, to'rt kishilik, olti kishilik, ikki kishilik chaylalardan tashkil topgan. Chaylalar shunday chiroyli to'qilganki, odamlar hashamatli restoranlarga borishdan ko'ra, shu yerni afzal ko'rishadi. Ikki-uch kun avval joyni band qilib qo'yishadi.

Peshingacha aylanib, "Tegirmon"ga kirdik. Bu restoran daryo bo'yida bo'lib, ilgarilari chindan ham tegirmon bo'lgan ekan. Unga zarurat qolmagach, restoran qilishibdi. Qizig'i shundaki, xo'randa uchun hozir ham bunda un tortiladi, shu yerda non yopiladi. Restoranda faqat non bilan yeylimadigan ovqatlar tayyorlanadi.

Odam kam edi. Kabob buyurdik. Ofitsiant issiq non bilan pivo, mag'iz olib keldi-da, engashib Yordanga nimadir dedi.

- Nima dedi? - so'radi Lada u ketgach.

- Hozir ko'rasan. - Yordan kulib, menga g'alati qarab qo'ydi. Keyin chidamadi shekilli, aytdi. - Azizning O'zbekistondan ekanligini bilib, mehmonga palamut qovurib kelsam maylimi, deyapti.

- Yo'g'e, - sevinib ketdi Lada. - Palamut bor ekanmi?

- Kecha bir nechta tutib kelgan ekan.

- Palamuting nima? - so'radi qiziqib.

- Antiqa baliq, - tushuntirdi Yordan. - Kamdan-kam bo'ladi. Juda shirin, semiz. U faqat qovuriladi. Oq vino, konkyak bilan juda ketadi-da.

Hammamiz bu g'alati baliqni orziqib kutdik. Nihoyat, ofitsiant keldi. U tantana bilan qo'lidagi laganni stolga qo'ydi. Ajoyib kovurma taom hidi dimoqqa urildi. Lagandagi baliq uncha katta emas, kelsa yarim kilodan oshiqroq kelardi. Ammo tusi g'alati edi. Qora, tim qora, har yer-har yerida ko'ndalangiga kumush rang qalin chiziqlar bor, bosh-tanasi teng. Lagan ustida u xuddi dumba yog'dek titrab turardi.

- Kechirasizlar, - dedi ofitsiant hammamizga bir-bir qarab chiqib, - shu bitta qoluvdi.

- Zarari yo'q, rahmat, - dedim men.

- Men partizan bo'lganman, - dedi ofitsiant menga qarab. - Bizning otryadda bir o'zbek bor edi. Ziyomat Husanov. Yaxshi odam edi. Tanimaysizmi?

- Yo'q, - dedim men.

- Tanish qiyin. U bilan Italiyagacha borganmiz urushib. Meni ikki marta o'limdan qutqarib qolgan. Urushdan keyin ikki marta xat yozdim. Javob kelmadi.

- Surishtiraman, - va'da qildim men. - Balki, toparman.

- Rahmat, - ofitsiant minnatdor bo'lib, baliqqa ishora qildi. - Olinglar. Hozir kabob ham tayyor bo'ladi.

Lada sevinganicha bor ekan. Baliq juda mazali edi. Lekin birpasda tamom bo'lib qoldi.

- Bir tanishim bor, - dedi Yordan. - Palamut toptiramiz.

- Bay Yeftimmi? - so'radi Lada.

- Ha. Hozir o'zi bar ochgan. U topadi.

Ovqatdan so'ng mehmonxonaga qaytdik. Lada bilan Matey dam olgani o'z xonalariga kirib ketishdi. Biz esa Bay Yeftimni qidirib ketdik. Uni topish qiyin bo'lindi. U ochgan bar shunday mehmonxonamizning tagida bo'lib, yo'g'on zanjirlar bilan qirg'oqqa tortib qo'yilgan ikkita qayiqdan iborat edi. Ammo ikkala qayikda ham hech kim ko'rindidi. Bardan sal narida fanerdan yasalgan pastak uy bor edi. Shu yoqqa yurdik.

- Bay Yeftim! - qichqirdi Yordan.

Eshik ochilib, ichkaridan matroslarning olachipor maykasidagi sersoqol bir mo'ysafid chiqdi. Aftidan, u endi uyqudan turgan bo'lsa kerak, yirik qo'llari bilan ko'zlarini ishqalardi.

- Zdravey, Bay Yeftim! - dedi unga yaqinlashib Yordan.

- A! Yordancho! Salom, azizim! - mo'ysafid uni tanib, qo'l berdi. - Qachon kelding?

- Kecha. Lada ham keldi. O'g'ilchani ham olib keldik. Mana bu - mening do'stim. O'zbekistondan, - Yordan meni tanishtirdi.

- Demak, O'zbekistondan? - so'radi Bay Yeftim menga qo'l uzatib.

- Ha, - dedim men.

- Juda soz. Kechqurun kelinglar. Yaxshi narsalarim bor. Mehmon qilaman.

- Bay Yeftim, - dedi Yordan. - Mening do'stimga palamut yoqib qoldi. Lada ham qo'ymayapti. Shundan topilmaydimi?

- Bay Yeftimda nima topilmaydi o'zi?! - dedi g'urur bilan chol. - Kechqurun kelinglar. Jiyanim ham qaylig'i bilan shu yerda. U ham palamut buyurgan. Hammangga bittadan qovurib beraman.

- Rahmat, - dedi xursand bo'lib Yordan.

Biz tepaga ko'tarildik. Mehmonxonaga yetay deganimiz-da oldimizga "Volga" kelib to'xtadi. Dragomir tushdi. Mashinada Anna-Mariya, Lili ham bor edi. So'rashdik. Anna-Mariya yana tishlari yaraqlab jilmaydi. Ko'nglim joyiga tushdi. Demak, xafa bo'lmafigi.

- Kechqurun nima qilasizlar? - so'radi Dragomir.

- Palamut buyurdik, shunga boramiz, - dedi Yordan.

- Biz ham buyurganmiz. Men sizlarni taklif qilmoqchi edim. Qizlar ham iltimos qilishdi.

Men yalt etib Yordanga qaradim. U miyig'ida kulib qo'ydi.

- Qaerda?

- "Drakon"da, - dedi Dragomir. - Amakim ochgan bar. - U birdan kulib yubordi. - Ikkita ishdan chiqqan qayiqqa "Drakon" deb nom qo'yibdi. Juda g'alati odam.

- To'xtang?! - dedi Yordan. - Bay Yeftim amakingizmi? -Ha.

Hammamiz kulib yubordik.

- Hozir biz uning oldidan kelyapmiz, - dedi Yordan. - Sizni aytgan ekan-da, jiyanim keladi deb?

- Ha.

- Bo'pti bo'lmasa. Kechqurun uchrashamiz.
- Bo'pti.
- Biz xayrashdik. Mashina ketdi.
- U ham iltimos qilgan bo'lsa, jiddiy qizga o'xshay-di, - dedi Yordan mehmonxonaga kirar ekanmiz. - Lekin xayrashsa bo'lardi ertalab.
- Hozir xayrashdi-ku? - dedim men.
- Ko'rganim yo'q.
- Sen o'zi ko'p narsani ko'rmayсан, - negadir hozir Anna-Mariyani himoya qilgim kelib ketdi. - Qo'l silkitib xayrashdi.
- Ko'rmadim, - O'jarlik qildi Yordan.
- Men ko'rdim! - dedim men ham o'jarlik qilib.
- Mayli, mayli, - Yordan qo'llarini ko'ziga tutib kuldila (u doim shunday kulardi), qo'shib qo'ydi: - Ishqilib, zerikmasang bo'lgani. Yaxshi qiz ekan.
- Jahlim chiqib ketdi. Lekin unga javob qaytarish o'rniqa yosh boladek qizardim.
- "Chindan ham yaxshi qiz!" - O'yladim xonamga kirganim-da yana Anna-Mariyani ko'z oldimga keltirib va tungi uchrashuvni orziqib kuta boshladim.

4

Kechqurun shahar aylana boshladik, u boshidan bu boshiga bir necha marta piyoda borib keldik. Shuncha yursak ham aksiga olib vaqt juda sekin o'tardi. Nihoyat "Nimfa"ga so'nggi bor qaytib kelganimizda soat o'n ikkiga bong urdi. Pastga tushdik. Chiroqlari dam ko'k, dam qizil tusda parpirayotgan qayiqlarning birida Dragomirlar anchadan beri o'tirishgan ekan. Bay Yeftim Lada va Matey bilan ota-boladek ko'rishdi, keyin hammamizni qayiqqa taklif qildi. Men o'zim ham sezmay Anna-Mariyaning yoniga o'tirib goldim.

- Qalay? Yaxshi dam oldinglarmi? - so'radi Yordan.
- Ha, - dedi Dragomir. - Anna-Mariyani rosa charchatyapmiz. Anna-Mariya yer ostidan Dragomirga yalt etib qaradi-da, kuldila.
- Varnaga borib keldik, - gapida davom etdi Dragomir. - Magazinlarni aylandik. Qizlar bilan yursang - shu. Kurortdan ham magazin afzal ularga.
- Mircho! - Lili lablarini cho'chchaytirib, Dragomirni turtdi.
- Tuzuk narsalar bormi? - so'radi Lada. Hammamiz kulib yubordik.
- Ayollarning hammasi bir xil, - dedi Yordan. Ammo ayollar bizga e'tibor qilishmadi. Anna-Mariya o'rnidan turib, oyog'idagi hal shippakni ko'rsatdi.
- Yaxshimi? - u shunday deb menga qarab qo'ydi.
- Juda ham! - dedi Lada shoshib. - Yordan, ertaga biz ham borib kelaylik?
- Seniki bor-ku, - dedi Yordan.
- Bu boshqacha, ko'rmayapsanmi?
- Juda yaxshi! - dedim men Anna-Mariyaga. - Yarashibdi. U muloyim jilmaydi.
- Hazil-mutoyiba gaplar bilan ancha vaqt o'tib ketdi. Bay Yeftim bor mahoratini ko'rsatib, palamutlarni qovurib keldi. Anna-Mariya, Lada yosh bolalardek sakrab ketishdi. Hammamiz Bay Yeftimning oshpazlik mahoratini maqtab, uning sog'lig'iga qadah ko'tardik. Bay Yeftim ham biz bilan o'tirdi. Besh-olti ryumkadan so'ng u qizishib:
- Shu palamut deb men odam o'dirganman, B'B"dedi to'satdan.
- Angrayib qoldik. U bir chekkadan bizga qarab chiqdi.
- Ha, odam o'dirganman.
- Qo'ysangiz-chi! - dedi Dragomir va bizga qarab, qo'shib qo'ydi: - Keksa dengizchi dengiz ertaklarini eslayapti.
- Biz kulgan bo'ldik. Lekin hech qaysimizning tomog'imizdan ovqat o'tmay qoldi.
- Janob baron, - dedim shunda men. - Bu baliqni hech kim menchalik pishira olmaydi. Agar bizga bir ryumkadan rakiya bersangiz, o'zim qovurib berardim.
- Gans! - qichqirdi baron va meni ko'rsatdi. - Buni oshxonaga olib bor! Mana bularga rakiya ber! Ey! - Meni turtdi. - Hozir tayyorlaysan. Madam bo'ladi, madam!..
- U xursand edi. Men ham ishim o'ngidan kelayotganiga xursand edim. Gans meni baronning oshxonasiga olib bordi. Mehmonxona uning yonida edi. "Ishqilib, soqchi qo'ymasin-da yonimga", - O'yladim men. Keyin dadil bo'lish uchun yarim stakan rakiya ichib yubordim. Xayolim tepamda qaqqayib turgan Gansda. La'nati hech ketmaydi-da. Nima qilish kerak?
- Bay Yeftim yana ryumkasini to'latdi.
- Nima qilish kerak? - dedi uni ichib yuborib. - La'natiga bitta baliqni qovurib berib ichirmaymanmi, deb o'ylab qoldim.
- Uyladimu, shosha-pisha bitta baliqni qovurdim. Keyin bir stakan to'latib rakiya quydim-da, Gansga uzatdim.
- Ol, Gansik, azizginam, baronga ham yetadi.
- U qo'rqa-pisa tarelkani qo'limdan oldi. Bir burchakka borib, apil-tapil baliqni tushira ketdi. To'xtatdim.
- E, Gansik, bunday bo'lmaydi, azizim. Mazasi manavi bilan-da.
- Stakanni uzatdim. U ikkilanib turdi. Qarasam, bo'lmaydigan. Shunda tarelkani ko'zlarini baqraytirib turib tortib oldim.
- Yaxshi, yaxshi! - dedi u shoshib. - Ber bu yoqqa!
- U shunday dedi-yu, aftini bujmaytirib, stakanni bo'shatdi. Rakiya jonivor ham o'tkir ekan, ko'zlar yonib ketdi, nafasi xalqumiga kelib, o'qchiy boshladi.
- "Bittang ketding", - dedim ichimda sevinib.
- Yana beshta-oltita baliqni qovurgunimcha Gans "tayyor" bo'ldi. O'zicha nimanidir xirgoyi qilib, kuylay boshladi. Shu payt "Gans!" deya qichqirib qoldi mehmonxonadan baron. Gansning esa parvoyi falak. Shoshib baliqlarni tarelkalarga soldim-da, o'zim mehmonxonaga kirib bordim. Lippamga pichoq qistirib olganman. Baron bir qizni tizzasiga o'tqazib ichib o'tirardi.
- Magnitofondan allaqanday nemischa kuy yangrardi.
- O, bolgar! - dedi baron og'zi qulog'iga yetib. - Bolgar yaxshi, palamut bolgardon yaxshi!
- U xaxolab kului. Qiz ham unga qo'shildi. G'azabimni sezdirmaslik uchun men ham tirjayib qo'ydim. Tarelkalarni stolga qo'yayotib, ko'zim muz solingan chelakdag'i shampanskoeaga tushib qoldi.

- Marsh! ShnelKj, shnelKj!

Baronning shunday deganini bilaman, shishaning uchidan ushladimu, qarsillatib boshiga soldim. Qiz dodlab yubordi. Yuz-ko'zlari vinodan ko'pirib ketgan baron polga ag'darildi. "T-s-s!" - dedim qizga qo'limni bigiz qilib. Derazaga bordim. Endi uni ochgan edim, belimga bir narsa sanchildi. Qarasam, pichoq. Qaytdim. Pishillab yotgan baronning ko'kragini mo'ljallab turib, uni otdim, keyin derazadan sakradim. Shu payt otishma boshlanib ketdi. Avtomatchilarning bir qanchasini qirib, baliqchilar bilan joyimizga qaytdik. O'shanda ikkita panjamni o'q uzib ketgan.

Bay Yeftim ikki barmog'i yo'q chap qo'lini ko'rsatdi. Biz jim edik. Hammamizga uning hikoyasi qattiq ta'sir qilgan edi.

- Hay, - dedi bir mahal Bay Yeftim. - Qani, Mircho, ryumkalarni to'lat. Biz urushni ko'rdik. Sizlar uni bilmaysizlar. Ishqilib, bilmanglar.

Dragomir ryumkalarni to'latdi.

- Qani, omon bo'linglar!

Bay Yeftim hammamiz bilan ryumkasini urishtira boshladi.

- Ie, - dedi u menga navbat kelganda. - Bu qiz qani?

Men yonimga qaradim. Anna-Mariya yo'q edi. Qachon ketib qolgan ekan.

- Anna-Mariya! - qichqirdi Lili. Hech kim javob bermadi.

- Qayoqqa ketdiykin? - hayron bo'ldi Yordan.

- Shu yerdadir, - dedi Dragomir. - Qani, qo'limizdagini ichib yuboraylik.

Biz istar-istamas ichdik. Xayolimiz Anna-Mariyada edi.

- Hikoyam yoqmadi shekilli? - dedi Bay Yeftim xijolat bo'lib.

- Unga tushunish qiyin, - dedi Dragomir. - Birpas kutaylik.

Lekin Anna-Mariya kelmadи. Men uni qidirishni taklif qildim. Dragomir "Neptun"ga ketdi. Yordan bilan men xiyobon tomon yo'l oldik.

Bir soatcha aylandik. Biroq, hech qaerda uni ko'rmasidik. Qaytib kelganimizda Dragomir ham uning memonxonada yo'qligini aytdi.

Unga nima yoqmagan bo'lishi mumkin? Yo biron voqeani eslab ketdimikin? Hech qaysimiz buni bilmas edik.

- Men uni yaxshi bilaman, - dedi bir mahal Lili. - Qaerdadir u hozir xayol surib o'tiribdi. Shunaqa odatlari bor. Kelinglar, undan tashvishlanmaylik.

- Shunday de, qizim, - dedi Bay Yeftim. - Men rosa xijolatga tushib qoldim. Qayokdan ham shu voqeа esimga keldi o'zi? Vino olib chiqaymi?

- Olib chiqing, - dedi Dragomir.

Ammo vinodan men icholmadim. Bir qultum yutdim, xolos. Ko'nglim negadir g'ash edi. Qancha o'ylamay, bu g'ashlikning sababini topolmadim. Sheriklarim yana suhbatga tushib ketishgan, lekin ularning gapi qulog'imga kirmas, dengizga tikilganimcha o'tirardim. Osmonda bulutlar paydo bo'lganidanmi, dengiz motam tutayotgan ayloga o'xshardi. Hamma yoq qop-qorong'i. Uzr so'rab, o'rnimdan turdim. Yordan kuzatib qo'yemoqchi bo'luvdi, ko'nmadim. Ertalab sohilda uchrashishga axslashib, mehmonxonaga ketdim.

5

Yarim yo'lga borganimda negadir sohilga burildim. Tuflimga qum to'lib borayotganiga parvo qilmay qirg'oq bo'ylab yurdim.

Mehmonxonaning ro'parasiga kelganimda oldimda bir narsa qorayib ko'rindi. Nimaligini olisdan ko'rib bo'lmasedi. Yaqinlashdim.

- Anna-Mariya?! - deb yubordim shu top hayajon ichida. Qora narsa menga o'girildi. Uning ko'zlari qoplonning ko'zlaridek yonardi.

- Ha? - dedi u sekin.

- Nega ketib qoldingiz? Xavotir oldik.

- Lili tinchlanfirmadimi? Uning ovozida kinoya sezildi.

- Tashvishlanmanglar, dedi. Lekin har holda...

- Ko'nglim yakkalikni tiladi.

- Yarim kechada bir o'zingiz cho'chimaysizmi? Tag'in, tun qorong'i. Anna-Mariya istehzo bilan kuldi.

- Ba'zan shunday tun kunduzdan yaxshi ko'rinati odamga.

- Yo'g'e...

U gapimni tugattirmadi

- Menga achinyapsizmi? Yo tanbeh bermoqchimisiz?

- Nega tanbeh bo'lsin?

- Bo'lmasa o'tiring.

U yonidagi shippaklarini chetroq surib, joy ko'rsatdi. O'tirdim.

- Ha, - dedi u, - bugun tun qorong'i. Dengizda hech narsa ko'rinxaydi. Osmonda ham. Tun qanchalik qorong'i bo'lsa, kunni shunchalik ravshan his qilging keladi. Afsuski, ko'pincha bunday emas.

- Anna-Mariya.

- Ha.

- Sizni nimadir qiyayapti?

- Yo'q, nima qiyashi mumkin? Yosh bo'lsam, chiroqli bo'lsam, kulgi yuzimdan arimasa, nima qiyashi mumkin?

U birdan kulib yubordi. Lekin uning bu kulgisi qandaydir sovuq, yasama edi. Cho'chib ketdim. Buni payqadi shekilli, jiddiy ohangda dedi:

- Yuring, yaxshisi qoyamizga borib kelamiz.

- Qoyamizga? - hayron bo'lib so'rading men.

- Ha. Suv parisi chiqqan qoyaga. Yuring! U bu gal, balki, sizga bo'sa hadya qilar.

U javobimni kutmasdan yechina boshladi. Uyalib, ko'zimni chetga oldim.

- Yuring!

Suv shalopladi. Boshimni ko'targanimda u ancha olisda suzib ketayotgan edi. Darhol yechindim-da, men ham o'zimni suvga otdim. Unga yetib olganimda vujudimni sevinch qoplagan, kutilmagan yaqinlikdan boshim osmonga yetgan edi.

Ko'p o'tmay, qoya ustiga chiqdik. Anna-Mariyaning to'zg'igan sochlari yelkalari, ko'kraklariga tushib turar, chindan ham suv parisiga o'xshar edi.

- Menga bu yer juda yoqib qoldi, - u entikib nafas olardi.

- Bugundan boshlab menga ham, - dedim tonggi uchrashuvimizni eslab.

U jilmaydi, guruch tishlari birin-ketin ko'rina boshlagan yulduzlar shu'lasida yaltirab ketdi. Keyin sehrli ohangda dedi:

- Har kuni shu mahal keling. Suv parisi sizni kutadi.

- Agar hadyasinib bersa... kelaman.

Anna-Mariya yana jilmaydi. Keyin nam lablarini ohista yuzimga tegizdi. Vujudimni shirin titroq qopladi, ehtiyyotlik bilan sochi aralash yelkalaridan quchoqlab, o'zimga tortdim. U indamadi, muzdek qattiq ko'kraklari ko'kragimga yopishdi, yuzimni yuziga qo'ydim, keyin lablaridan uzoq o'pdim. Issiq nafasi yuzimga, ko'zlarimga urildi. Uning yuragi dukillab urar, ho'l qo'llari peshonamni, sochlarni silardi. Birdan u boshini ko'tarib, mendan o'zini tortdi.

- Siz chiroyliksiz, Anna-Mariya, - dedim boshqa nima deyishimni bilmay.

- Hamma shunday deydi.

- O'zingiz ham buni bilasiz... Boya...

- Boya jahl ustida shunday dedim. e'tibor qilmang.

- Mening ham o'z fikrim bor. Shuni aytdim, xolos.

- Rahmat, - Anna-Mariya o'ylanib qoldi. - Lekin... baxt chiroyda emas, - dedi u bir ozdan so'ng. - Baxt nimaligini odam hech mahal bilmaydi. Qarang! Paroxod!

Anna-Mariya sakrab o'nidan turdi. Qo'llarini cho'zib, olisni ko'rsatdi. Men u ko'rsatgan tomonga emas, uning o'ziga tikilardim. Shu topda u qoya ustiga qora marmardan yo'nilgan ajoyib haykalga o'xshardi. Kuni kecha shunday go'zal qizni ko'rishni, u bilan mana shunday rohat quchog'ida bo'lishni xayolimga keltirgan edim. Nahotki, muhabbat shunday birinchi uchrashishda, shunday tasodifan yuz bersa? "Sevib qoldimmi uni?" - xayolimdan o'tdi. Lekin "ha", deyolmadim. Hammasi shunchalik tez yuz bergen ediki, o'ylashga fursat yetmagan edi.

- Ko'ryapsizmi? - xayolimni bo'ldi Anna-Mariya. Turdim.

- Huv ana!

Olisda miltillab qandaydir chiroqlar suzib borardi.

- Men sayohatni yaxshi ko'raman.

- Men ham, - dedim uni tirsagidan ushlab.

- Ertaga Balchiqqa bormoqchimiz. Siz bormaysizmi? U iltijo bilan menga qaradi.

- Boraman, - dedim. - Albatta boraman! Anna-Mariya dengizga shung'idi. Men qirg'oqqa chiqqanimda kiyinib bo'lgan, engashib sochlarni siqardi. Ko'p o'tmay ko'chaga ko'tarildik.

- Meni kuzatmang, - dedi u.

- Nega?

- Yomon ko'raman. Ertalab Yordan ham keladimi cho'milgani?

- Bilmadim.

- Tunda faqat ikkimiz, xo'pmi?

Men "xo'p", deb boshimni qimirlatdim. U chopib ko'chaning nariji betiga o'tdi-da, daraxtlar ichida g'oyib bo'ldi. Anchagacha u ketgan tomonga qarab qoldim. "Nima bo'lyapti o'zi? Bu, yengiltaklikmi yo jiddiy?" Qancha o'ylamay, savollarim javobsiz qoldi. Anna-Mariya murakkab qiz edi. Unga hali tushunmas edim.

6

Ertasiga ertalab anchagacha u kelmadi. Yordan bilan ikki marta qoyaga borib keldik, nam qumda yotdik. Sohilning u yer-bu yerida odamlar paydo bo'la boshladi. Men hammaga tikilardim. Hatto, oqarib qirg'oqqa yaqinlashayotgan to'lqinlarga ham, go'yo u suvdan chiqib kelayotgandek umid bilan qarardim.

- Kayfing yo'qroq ko'rindi? - so'radi Yordan.

- Unchalikmas, - dedim undan ko'zimni olib qochib, - Bay Yeftimning hikoyasi xayolimdan ko'tarilmayapti.

- Ha, Bay Yeftim... - dedi Yordan. - Ko'pni ko'rgan u. Lekin kecha ayollarning oldida shuni gapirmasa bo'lardi. Lada endi palamutni og'ziga olmaydigan bo'ldi. Anavi suv parimiz topilganmikin?

Nima deyishimni bilmay qoldim. "Aytaymi? - O'yladim men. - Yo'q, yaxshisi keyin. Aloqalarimiz nimaga olib keladi, hali bilmasam. Keyin aytaman". Shunday qarorga keldim-da, javob bermadim.

- Unga cholning hikoyasi yoqmadni, nazarimda, - gapida davom etdi Yordan. - Ha, yoqmadni. Bo'lmasa, nega ketadi? Innaykeyin, men senga aytasam, haddan tashqari dimog'dor, erka. Sheriklari atrofida girdikapalak bo'lishlarini ko'rdingmi?

- Mehmonda, - e'tiroz bildirdim men.

- Sen ham mehmongan. Tappa-tuzuk yuribsan-ku!

Men indamadim. "Nega kelmayapti?" Bu savol bosh og'ritadigan darajada meni qiyndardi. Birdan uning kechagi taklifi esimga tushib qoldi. Balki o'sha yoqqa ketgandir?

- Yordan!

- Labbay?

- Balchiqqa olib bormoqchi eding. Bormaymizmi bugun?

- Bo'pti.

- Uzoqmi Balchiq?

- O'ttiz kilometr keladi.

- Nonushtadan keyin boraylik, bo'lmasa?

- Bo'pti. Qani, yur, yana bitta cho'milaylik, - Yordan urnidan turdi.

- Men bo'ldim.

Yordan dengizga sho'ng'idi. "Ha, u albatta Balchikda, - O'yladim men. - Bo'lmasa kelardi".

Oftob ko'zimni oldi. Qirg'oqqa o'girildim. Sohilning pastak tosh devori yoni dagi sarv daraxti tagida tizzalarini quchoqlab bir qiz o'tirardi. Anna-Mariya! U meni ko'rmasdi. Yo o'zini ko'rmanliginka solardi. Oldiga bordim.

- Salom!
 - U sekin boshini ko'tarib, ko'zlarini menga tikdi. Uning rangi so'lg'in, qovoqlari shishgan edi.
 - Kech keldingiz?
 - Ha, - dedi u. Ovozi har galgidek emas, bo'g'iq edi. - Yomon uxladim. Tun bo'yи o'ylab chiqdim.
 - Nimani?
 - Har narsani. Boshim g'ovlab ketdi. Yoshligimdan shunaqaman. Ko'p o'layman. Ko'p xayol suraman. Aziz birdan u ismimni aytib murojaat qildi. - Baxt nima?
 - Baxt? -Ha.
 - Baxt... Nima desam ekan? - dedim men o'ylanib. - Agar... agar odam o'z hayotidan rozi bo'lsa, xursand bo'lsa, menimcha shu baxt.
 - Siz o'z hayotingizdan xursandmisiz?
 - Hozircha shikoyatim yo'q. Keyin nima bo'ladi, bilmayman. Har holda, yomon bo'lmasa kerak. Orzularim ko'p.
 - Men esa o'z hayotimdan xursand emasman. Siz aytgandek, rozi ham emasman.
 - Nega? - hayron bo'ldim men.
 - Kim biladi, nazarimda, men xuddi kapalakka o'xshayman. Umri qisqa, kichkina kapalak... U guldan bu gulga qo'naman. Ammo bittasida ham qo'nim topolmayman. Tikan kirgandek, sakrab boshqasiga o'taman...
 - Ko'p o'ylaganingizdan. Qarang, bu yer qanday go'zal, - dedim uni ovutmoqchi bo'lib. - O'ynang, kuling, yoshsiz hali, o'ylashning vaqt keladi.
- Anna-Mariya g'amgin jilmaydi.
- Siz xuddi oyimga o'xshab gapirasiz. U ham doim shunday deydi. Keyin yig'lab qo'shib qo'yadi: "Sen mening baxtimsan, sen xursand bo'lsang, men xursand bo'laman, tinch bo'laman". Uning baxtli emasligini allaqachon bilganman, men uning tashvishiman, meni bilganlarning hammasisiga tashvishman... Mana, kecha ham qancha tashvish orttirdim.
 - Unday demang. Siz bilan tanishganimdan juda xursandman.
 - Rostdanmi? - uning ko'zlarini pirpirab ketdi.
 - Rost. Yordan keldi.
 - Ha, qochoq qiz! Kecha bizni rosa tashvishga qo'ydingiz-da, - dedi u hazil aralash.
- Anna-Mariya "ana ko'rdingizmi", degandek menga qaradi.
- Nega cho'milmayapsizlar? Bugun suv juda yaxshi.
 - Hozir, - dedi Anna-Mariya. - O'rtog'ingiz Toshkentga taklif qilyaptilar.
 - O, Toshkent... - Yordan boshini qimirlatib qo'ydi. - Go'zal shahar. Ko'p bo'lganman Toshkentda. Borish kerak. Hozir esa mening boshqa taklifim bor. Biz bugun Balchiqqa bormoqchimiz. Marhamat, agar istasangiz, birga boramiz.
- Anna-Mariya menga ma'nodor ko'z qirini tashlab qo'ydi.
- Qaydam, - dedi u, keyin yelkalarini qisib: - Mirchoga aytaman.
 - Sizni Ruminiya qirolichasining taxtida suratga olaman, - dedi Yordan. - Aytishlaricha, u juda go'zal bo'lgan emish. Ammo tirik bo'lгanda, hech shubhasiz, u sizga tan bergen bo'lardi.
 - O, judayam oshirib yubordingiz-ku! - Kuldi Anna-Mariya.
 - Men xato qilmayman, ko'zim pishib ketgan. Xo'p, uzr. - Yordan o'rtas asr ritsarlaridek egilib xayrashdi.- Bizni qirolicha va shahzoda kutib qoldilar. Ko'rishguncha, xayr!
 - Cho'milamizmi? - so'radmin Yordan ketgach.
 - Ha, - Anna-Mariya o'rnidan turdi. - Suv - davo. Ketdik.
- U yana avvalgidek quvnoq va sho'x bo'lib qolgandi. Beto'xtov kular, yuz-ko'zimga suv sepib, atrofimda balikday aylanardi. Ancha cho'mildik. Men qoyaga taklif qildim.
- Yo'q, tunda, - dedi u.
 - Qirg'oqqa chiqqanimizda nonushta payti bo'lgan edi. Bir soatlardan so'ng uchrashishga va'da berib, u ketdi. Men ham o'z xonamga ko'tarilib, kiyindim-da, restoranga tushdim. Lada, Yordan, Matey allaqachon ovqatlanib o'tirishardi. Ofitsiant mening ham ovqatimni olib keldi. Shosha-pisha yeya boshladim.
 - Ishtahang tuzuk, - dedi Yordan. - Bu - ertalab cho'milishning foydasi.
 - Har kuni cho'milish kerak, - dedi Lada. - Matey bo'lmaganda men ham shunday qilardim.
 - Ikki kishi bo'lib cho'milsa, yanada yaxshi bo'ladi, - dedi Yordan va har doimgidek qo'lini ko'zlariga tutib, piq-piq kulib yubordi.
 - Uning nimaga shama qilayotganini bilib, qizarib ketdim. Lada tushunmadni.
 - Sen ham cho'milyapsan-ku, dedi soddalik bilan u eriga.

7

Balchiq - Qora dengiz bo'yidagi kichkina qadimiy shahar. Uning bir tomoni dengizga, bir tomoni esa baland tepaliklarga tutashib ketgan. Har qadamgingizda uzoq o'tmish hidi anqib turadi. O'rtas asrning gotik usulidagi cherkovlari hamon ishlab turibdi. Endi ularning behisob qo'ng'iroqlari har soat hamma notalarda jaranglab, vaqtadan darak beradi. Nazarimda, bu shaharchada imoratlardan ko'ra ko'chalar ko'p. Qing'ir-qiyshi, past-baland tosh ko'chalar... Shuning uchun bo'lsa kerak, odam siyrakligiga qaramay, shahar sershovqin sho'x ko'rindi. Yuzlab oyoq tovushlariga, oq xalat kiygan, savatchalarda issiq teshik kulcha sotadigan bolalarning "Mole bonbon! Mole gevritsi!" - degan ovozlari ko'shilib, ajoyib ohang kasb etadi, kayfiyattingizni ko'taradi. Teshik kulchalarni esa bu yerda yaxshi pishirishadi sedana sepishadi, qip-qizil, yumshoq, og'zingizga solsangiz, erib ketadi.

Lekin Balchiq faqat bular bilan sayohatchilarni o'ziga tortmaydi. Shaharning janubida, shunday dengiz bo'yida ajoyib saroy bor. Ulkan san'at va tabiat yodgorligi bo'lgan bu saroy o'tmishda qandaydir Ruminiya qirolichasining yozlik qarorgohi bo'lgan.

Sayohatchilarning ko'pi shu saroyni ko'rgani kelishadi.

Biz Balchiqqa yetib kelganimizda quyosh endi sarv bo'yи ko'tarilgan edi. Chet ellik ekanimizni sezishib, darhol atrofimizni bolalar o'rab olishdi. Yordan hammaga teshik kulcha, men esa ayollarga sadaf marjon olib berdim. Bir mahal Anna-Mariya qayoqqadir chopib ketdi. Ketidan bordim.

Bir kampir katta-kichik chig'anoqlarni yozib o'tirardi. Anna-Mariya eng kattasini olib, qulog'iga tutdi.

- Dengiz, xuddi dengizning o'zi! - dedi u zavqlanib. - Ana, to'lqinlar qirg'oqqa urilyapti! Eshiting!

8 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ

U chig'anoqni menga uzatdi. Qulog'imga tutdim. Haqiqatan ham chig'anoqdan dengiz shovqini kelardi.

- Oling, - dedim unga qaytarib. - Balchiqdan xotira.
- Yo'g'e, qimmat bo'lsa kerak? - dedi u. Ammo sevinib ketayotgani ko'zlaridan bilinib turardi.
- Sovg'aning narxini surishtirmaydilar.
- Rahmat. - Anna-Mariya mashinalarimiz tomon tez-tez yurib ketdi. - Lili, qara, menda nima bor!

Men kampir bilan hisoblashib, ularning oldiga kelganimda, Anna-Mariya chig'anoqni hammaning qulog'iga bir-bir tutib chiqayotgan edi.

- Hech esdan chiqmaydigan esdalik bo'ldi bu, - dedi u, menga minnatdorlik bilan tikilib. - Kattaligini qarang...
- Men kuldim. Arzimagan sovg'amni olganidan va undan zavqlanayotganidan men ham xursand edim.
- Bir soatcha shahar aylandik. Uymakor darvozalarni, devorlari nuragan qal'alarni tomosha qildik. Xaroba qasrlarga ko'tarildik. Cherkovlarni, turklar hukmdorligi davridan qolgan machit va unga tutash o't bosgan qabristonni ko'rnik. Keyin mashinalarimizga o'tirib, Ruminiya qirolichasining saroyiga bordik. Darvozadan kirishimizdayoq hayratga tushdik. Keng yo'lka, ikki tomoni yuz yashar arg'uvonlar, chinorlar... Ularning soyasidan yo'lkaga tangadek shu'la tushmaydi. Dimoqqa gupillab atirgullarning yoqimi hidi uriladi. Yuz qadamcha yurganimizdan so'ng taxta ko'prikkeldi. Uning tagi jar, allaqaerden sharsharaning ovozi eshitilardi. Jarlikda jimirlab oqayotgan kumushdek tiniq suv ko'priknning o'ng tomonidagi tepalik tagida yo'q bo'lib ketardi. Oldimizda ikki qubbalik qizil tom ko'rindi. U shunday dengiz bo'yida edi.

- Qasr shu, - dedi Yordan. - Dengizga chiqqan.

Biz aylanma zinadan pastga tushdik. Qasr uncha katta emas edi. Lekin did bilan qurilgan. Ikki tabaqali o'ymakor eshikdan ichkariga kirdik. Katta dahliz, undan to'rt tomonga eshik ketgan, to'da zal. Uning o'rtasida o'sha davrdan qolgan jimmijador kumush qandil osig'liq turardi. Zalga bir xona tutash edi. Unga ketma-ket qurilgan ikkita eshikdan kirilar ekan. Qirolichaning yotoqxonasi ekan bu xona. Xonaning o'rtasida baland, keng taxta karavot turardi.

To'rttalva tomonda shiftga tutashib ketgan tosh oyna, bir burchakda atir-upa stoli, bir burchakda esa karavot rangida shkaf. U ham oynalik.

- Shu yerda u baliqchilarni qabul qilgan, - dedi Lada.

- Baliqchilarni? - hayron bo'ldim men.

Lada boshini qimirlatib, negadir qizarib ketdi.

- Bu - afsona, - dedi Yordan.

- Afsona emas, rost, - e'tiroz bildirdi Lada.

- Qanaqa afsona? - gapga aralashdi Anna-Mariya.

- Aytib ber, endi, - dedi Yordan xotiniga.

- Tepaga chiqaylik.

Biz qasrning birinchi qavatini yana bir oz aylanib, tepaga ko'tarila boshlagan edik, devorga yopishtirilgan ko'k chinniga ko'zim tushib qoldi. Unga arab harflarida nimalardir yozilgan edi. O'qiy olmadim.

- Bu nima? - so'radim Yordandan.

- Bironta sharq shahzodasini qabul qilgan bo'lsa kerakda qirolicha, - dedi Yordan va kulib ko'ydi.

Lada ham kuldii.

- Har holda, uni o'ldirmagandir?

- Kim biladi, - dedi yelkalarini qisib Yordan. - Balki, o'ldirgani uchun yodgorlik qoldirgandir?

Er-xotin yana kulishdi. Ularga Dragomir bilan Lili ham qo'shildi.

- Nimaga kulyapsizlar? - So'radi Anna-Mariya.

- Men ham hech narsa tushunmayapman, - dedim men.

- Hozir, - dedi Yordan. - Hozir hammasini Lada aytib beradi. U ertak aytishga usta.

Biz dengizga qaragan uzun ayvonga chiqqdik. Ayvonning o'rtasida oq marmardan yo'nilgan baland taxt turardi.

- Qirolicha shu yerda o'tirardi, - dedi Lada.

- Nahotki? - Anna-Mariya yugurib borib, taxtga o'tirdi.

- O, bu yerdan dengiz juda chiroyli ko'rinishkan. Hammamiz beixtiyor dengizga qaradik. Ko'm-ko'k dengiz firuza devorlar bilan o'ralgan ulkan hovuzga o'xshardi. Men panjaraga suyanib, pastga qaradim. Ko'zim tinib ketdi. Ayvon dengizdan ancha baland bo'lib, suv ustida lapanglab turardi.

- Ha, qirolicha ahmoq emas ekan, - dedi Dragomir istehzo bilan. - Lada, afsonangni aytib ber endi.

- Aytishlaricha, qirolicha juda ehtirosli ayol bo'lgan ekan, - deb Lada hikoyasini boshladи. - Har yoz shu yerga kelar ekan-da, kun bo'yi bog'ni aylanar ekan, oqshom tushishi bilan shu ayvonga chiqqib, taxtiga o'tirar ekan. Xuddi shu paytda ovdan qaytayotgan baliqchilar o'z qayiqlarida uning qasri oldidan o'tishar ekan. Qirolicha ulardan eng yoshini, eng chiroylisini tanlab chaqirtirar ekan. Tun bo'yi u bilan kayf-safo surib, tongda o'ldirar ekan. Shu ahvol har kuni, har yili takror bo'lar ekan. Bir kuni dengizga shunday termilib o'tirgan ekan, ajoyib bir baliqchi o'tibdi. Yosh emish, kelishgan, baquvvat emish. Qirolicha uni ajoyib taomlar, ichimliklar bilan boyagi siz ko'rgan zalda mehmon qilibdi. Qirolichaning bunday mehrbonchiligini tushunmagan yigit ovqatlanib bo'lib, ketmoqchi bo'libdi. Qirolicha kulib yuboribdi. "Sen menga yoqib qolding, yigit, - debdi u. - Bugun men bilan bo'lasan". Bechora yigit bo'shashganicha joyidan qimirlolmay qolibdi. Nima qilsin? Qirolichaga gap qaytarib bo'ladimi? Qolibdi. Odatdagidek, tun bo'yi kayf-safo bo'libdi. Kayfi oshgan yigit uyini ham, yosh xotinini ham unutibdi. Ammo u qirolichaga yoqib qolibdi. Shuning uchun tongda uni o'ldirmabdi. Kechqurun kelish sharti bilan qo'yib yuboribdi. Kun o'tibdi, oqshom tushibdi. Dengizda birin-ketin qayiqlar ko'rinishdi. Ammo yigit ko'rinnabdi. Bir kun kutibdi qirolicha, ikki kun kutibdi. Uchinchi kuni chidolmay, butun shaharga odam choptirib, yigitni qidirtiribdi. Ammo hech qaerdan o' topilmabdi. Bir kuni qirolicha dengizga termilib o'tirgan ekan, bir narsa oqib borayotgandek ko'rinishdi, darrov xizmatkorlarini chaqirtirib, tutib kelishni buyuribdi, keltirishibdi. Qirolicha qarasa, o'sha yigit ekan. Bechora sharmandalikdan uyalib, o'zini dengizga tashlabdi. Sevgisi barbob bo'lganini sezgan qirolicha ham shunda o'zini svuga otibdi.

- Qayg'uli afsona, - dedi Anna-Mariya o'ylanib. Men unga qaradim. U uzun oyoqlarini chalishtirib, xayolchan, yarim yumuq ko'zlarini dengizga tikkanicha qo'lidagi yirik yoqut ko'z uzugini ohista o'ynab o'tirardi. Shu topda o'sha baxtsiz muhabbat oshig'i - qirolicha tirilib kelib, o'z taxtida o'tirgandek bo'lib ketdi menga. Undan ko'z uzolmay qoldim. U go'zal, bag'oyat go'zal edi.

Fotoapparat "shirq" etdi.

- Suratingiz tayyor, mening qirolicham! - dedi Yordan sho'x ovoz bilan.
- Anna-Mariya e'tibor bermadi. U o'z xayollar bilan band edi. Boshi sal orqaga tashlangan, ingichka, yoqut rang lenta bilan tang'ilgan sochlari taxt suyanchig'i ustida yoyilib yotardi.
- Qayg'uli afsona, - qaytardi u. - Lekin bir kun bo'lsa ham men shu qirolicha o'rnida bo'lishni istardim.
- O, - dedi Yordan kinoya bilan. - Sevish va o'ladirish uchunmi?
- Yo'q, faqat sevish uchun. Bundan katta baxt bormi? Hech kim javob bermadi. So'zsiz ham uning haqligini hamma ichida tasdiqlagan edi.
- Dada, suv! - dedi Matey.
- Bu gap hammamizni parishonlikdan chiqardi.
- Darvoqe, qorin ham ochdi, - dedi Dragomir.
- Hozir ketamiz. Bittadan suratlaringizni olay. Yordan ayollarni birma-bir taxtga o'tqazib, suratga oldi.
- Keyin hammamiz yonma-yon turib tushdik.
- Zlatni Pyassiga qaytganimizda kun peshindan oqqan edi. Ko'chalarda odamlar deyarli ko'rinnasdi, restoranlar bo'm-bo'sh. Kuz quyoshi xuddi Toshkentdagidek seryog'du va issiq edi. Anna-Mariya negadir horg'in va ma'yus ko'rinnardi. U yo'l-yo'lakay bir og'iz ham gapirmadi. Yordanning ba'zi hazil-huzul gaplariga yengil jilmayish bilan javob bergan bo'lsa ham ko'zlari o'ychan va jiddiy edi.
- Shaharning markazidagi "Astoriya" restoranida ovqatlandik. Ovqat mahali ham u churq etmadni, tuzukroq ovqatlanmadni.
- Erinibgina kofe ichar ekan, ko'zlarini restoran ro'parasidagi pristandan uzmasdi. PristanKj tinch, ko'priq ustida ikkita kalta shim kiygan semiz, yuzlari tandirdan yangi uzelgan nondek qip-qizil, o'rtaloshli kishi (nemis bo'lsa kerak) beso'naqay latta shlyapa kiygan bir kampir bilan gaplashib turishardi. Ko'priq yonidagi qum sohilda qizil tasma bilan egar tortilgan oq tuyu uzun bo'yinini cho'zib, so'laklarini oqizganicha erinchonlik bilan kavsh qaytarardi.
- Tashqariga chiqdik.
- Ana, tuya, tuya! - dedi Matey onasiga yopishib. - Bitta minay.
- Jordanco! - dedi Lada. - Tinch qo'ymaydi endi. Minsin.
- Hammamiz tuyaning oldiga bordik. Qari fotograf darrov tuyaning ustiga narvon qo'ydi.
- Mole, - dedi u og'zi qulog'iga yetib jilmayar ekan. Tuya beparvolik bilan kavshanar, joyidan qimirlamasdi.
- Matey esa o'zida yo'q shod edi. Uni pastga tushriganda:
- Men ham! - deb qoldi Anna-Mariya ko'zlarini chaqnab.
- Moment! - fotograf yonida turgan chamadondan oq choyshab olib, Anna-Mariyaning ustiga tashladi, keyin oq ro'mol bilan boshini tang'idi, faqatgina ko'zlarini ochiq qoldi. Tuya ustiga chiqqanda u xuddi jazirama sahroda ketayotgan arab ayoliga o'xshardi. Fotograf qo'liga uzun tayoq ham tutqazdi. Anna-Mariyaning chehrasida boyagi ma'yuslikdan asar ham qolmadi. Yosh boladek oyoqlari bilan tuyani niqtab, o'z tilida nimalardir deb kulardi. Fotograf uni nemis deb o'yaldi shekilli, apparatini to'g'rilab qo'lini ko'tardi.
- Axtung! Axtung!
- Anna-Mariya unga yalt etib qaradi. Uning qoshlari chimirilgan, ko'zlarini g'azab bilan yonardi. Ammo, fotograf o'z ishi bilan band, undagi o'zgarishni payqamadi. Men hayron bo'ldim. "Nega jahli chiqdi?" - O'yladim o'zimcha, lekin hech narsa tushunmadim.
- Anna-Mariya yana birpasda o'zgardi, jilmayib Liliga ruscha murojaat qildi.
- Unga ayt, tuya boshini ko'tarsin.
- Lili bolgarchalab fotografga uning iltimosini tushuntirdi.
- O, sega! Segal!
- Fotograf hozirjavoblik bilan tuyaning oldiga borib, yerda yotgan tizginini oldi-da, Anna-Mariyaga uzatdi. Tuya erinibgina boshini ko'tardi. Keyin yana egildi. Anna-Mariya qo'lidagi tayoq bilan uning bo'yning urdi. Tuya boshini ko'tarmadi. Anna-Mariya yana urdi. Tuya parvo qilmadi. Anna-Mariyaning ko'zlarini chaqnab ketdi. Chap qo'li bilan tizginni tortar ekan, o'ng qo'lidagi tayoq bilan tuyani yuz-ko'zi aralash savalay boshladi. Avval indamay turgan tuya boshini olib qochib, birdan aylana boshladi. Anna-Mariya to'xtamadi. Savalayverdi. Tuya kaltakdan ko'zlarini yashirib, ko'z atrofida gir-gir aylanardi. Birdan u bo'kirdi, oyoqlarini beso'naqay ko'tarib, sakray boshladi.
- Mole vi! Drugarka! Mole vi! - qichqirdi jon holatda fotograf.
- Biz qo'rqib ketdik. Ammo nima qilishimizni bilmas edik. Lili nimadir deb qichqirdi. Dragomir ham bir nimalar dedi. Anna-Mariya esa hech kimga parvo qilmay tuyani savalar, o'z tilida nimalardir deb qichqirardi. Bir mahal epchillik bilan tuya ustidan sakrab tushdi. Shunday epchillik bilan boshidagi ro'molini, choyshabni yechdi-da, qum ustiga uloqtirib, yugorganicha mehmonxonada tomon ketdi. U yig'lardi.
- Nima bo'ldi unga? - dedi hayron bo'lib Yordan. Dragomir bilan Lili bir-birlariga qarashdi, ammo hech narsa deyishmadni. Men ham nima deyishimni, bu dahshatli voqeani qanday tushunishni bilmashdim. Fotograf hansirab nafas olayotgan tuyaning boshini silar ekan, yalingansimon derdi:
- Menda ayb yo'q, tuya juda yuvosh edi, menda ayb yo'q. Bilmadim, nima bo'ldi?
- Madam juda qiziqqon ekan, - dedi pristandagi nemislardan biri, - gut, gut!
- Biz kayfimiz buzilib, mehmonxonaga jo'nadik.

Allamahalgacha o'zimga kelolmay yotdim. Bu qanday qiz o'zi? Nega bunchalik tez o'zgarib turadi? Bechora tuyani nima uchun bunchalik g'azab bilan savaladi? Shu savollar bilan unga bo'lgan munosabatimni aniqlab olishim kerak edi. Lekin munosabatim qanday? Men hech narsani bilmashdim, xayollarim meni qayoqqa olib ketmasin, boshi berk ko'chaga borib taqalardim. O'sha kuni tunda sohilga tushdim. Negadir, uni kelmaydi deb o'ylagan edim. Yo'q, kelibdi. Qoya qarshisida xuddi avvalgidek - tizzalarini quchoqlab o'tirardi. Ammo bu gal kiyimda edi. O'sha qora shim. Badaniga yopishib turgan oq kofta. Tiniq osmonda ohista suzib borayotgan oy uning so'lgin yuzini yoritib turardi.

- Qarang, bugun dengiz juda tinch, - dedi u meni oldida ko'rib.
- Yoniga o'tirdim.
- Tinch, ham salobatli... - U menga o'girilmadi. - Lekin nega odamlar shunday tinch bo'lolmaydi?

- Kim biladi, - dedim men. - Har holda, odam o'zini jilovlagani ma'qul.
 - U indamadi. Ikkalamiz ancha vaqtgacha jim o'tirdik. Men undan ko'p narsani so'ramoqchi bo'lib, bir necha marta og'iz juftladim. Lekin nimadan boshlashni bilolmay turdim. Keyin bu fikrdan qaytdim. Agar uning dardi bo'lsha, o'z savollarim bilan yarasiga tuz sepgan bo'laman.
 - Meni kechiring, - dedi u, hamon dengizdan ko'z uzmay. - Bugun nojo'ya qiliqlar qildim. Ah, faqat bugun emas! Har kuni shunday qildim. Bugun esa fotografning menga nemischa gapirganidan jahlim chiqdi. Bechora tuyada hech gunoh yo'q edi. Anna-Mariya boshini egib, qo'llari orasiga oldi, yelkalari titrab ketdi.
 - ... Esingizdam, men hech kimga baxt keltirmayman, faqat tashvish keltiraman, degan edim. To'g'ri shu. Hech kim mendan xursand bo'lmaydi. Hatto, hayvonlar ham. Ha, hayvonlar ham!
 - Qo'ying, yig'lamang, - men yelkalaridan quchoqlab, uni ovuta boshladim. - Qirolichalarga yig'lash uyat.
 - Anna-Mariya yig'i aralash kulgan bo'ldi. Boshini ko'tarib, mushtlari bilan ko'zlarini artdi.
 - Siz yaxshi odamsiz. Siz bilan tanishganimdan juda xursandman. Ammo sizga ham tashvish ottirdim. Ishoning, men shu paytgacha mushukka ham ozor bergen emasman.
 - Ishonaman, - dedim men. - Keling, shu haqda gaplashmaylik. Yaxshisi, yuring, bir cho'milib chiqamiz. Suv tinchlantiradi, asablarni joyiga keltiradi. O'zingiz shunday deysiz-ku!
 - Yo'q, - Anna-Mariya yana o'ylanib qoldi. Bir mahal u o'zining yirik ko'zlarini menga tikdi. - Aziz!.. Meni o'ping!
 - Men hayron bo'lib va shu bilan birga quvonchli hayajon bilan uni bo'ynidan quchoqladim. U boshini qo'limga tashlab, yumshoq lablarini menga tutdi. Uning butun badani, yuzlari yonardi. Uzoq o'pdim, u qafasga tushgan qushdek tipirchilar, ammo lablarini labimdan uzmashdi. Birdan u sug'urilib, quchog'imdan chiqdi, to'zg'igan sochlarini to'g'rilar ekan
 - Rahmat, - dedi va dengizga ko'z tikdi. Uning ko'zlarida yosh yaltirardi.
 - Anna-Mariya...
 - Anna-Mariya...
 - Hech narsa demang.
 - U o'rnidan turib, qo'lini uzatdi.
 - Xayr.
 - Anna-Mariya!
 - Xayr.
- Beixtiyor qo'limgi uzatdim. U mahkam qisdi, keyin yengil burilib, shahar tomon ohista yurib ketdi. Men angrayganimcha uning ortidan qarab qoldim. Nima bo'lyapti o'zi? Bu baxtmi, kulfatmi, nima? Men hech narsaga tushunmay qolgan edim. Lekin bir narsa aniq edi. Men sevib qolgan edim. Bahor havosidek sof, dengizdekkotinch sehrgar qizni sevib qolgan edim. Sevgim qanday natijalarga olib kelishidan qat'iy nazar, o'z hayotimni o'sha paytda usiz tasavvur qilolmasdim.

9

Ertasiga azonda uyg'onib, pastga tushdim. Yordanni uyg'otdim.

- Tonggi cho'milish yoqib qoldi shekilli? - dedi u kulib.
 - Sohilga tushdik. Men o'zimda yo'q shod edim. Qoyaga yetib borib, tosh ustiga o'tirdik. Ko'zim qirg'okda, ammo u bo'sh, hech kim ko'rinasdi. "Nahotki kelmasa?" - O'yladim xavotirlanib. Ammo bu xavotirlanish o'zimga o'rinsiz ko'rindi. U kelishi kerak, albatta kelishi kerak edi. Biroq u kelmadi. Tunda ham kelmadi. Tonggacha mijja qoqmay chiqdim. Tong otishi bilan esa shoshib sohilga tushdim. Hech kim yo'q. Nima qilishimni bilmay qoldim. Nimadir ichimda uzilib ketgandek bo'ldi. Yordan keldi.
 - Ha, kayfing yo'q ko'rinati?
 - Sal boshim og'riyapti.
 - U cho'mila boshladi. Nonushtagacha o'tirdim shu yerda. Nonushtadan so'ng Yordan Varnaga borib kelishni taklif qildi. Lada haligacha Anna-Mariyaning oyog'idagi tuflidan ololmagan, kimdir shu kunga va'da bergen edi. Bosh og'rig'in bahona qilib qoldim. Ular ketishi bilan "Neptun" mehmonxonasiga yugurdim. Borib Dragomir Shopovni so'radim.
 - Ikki kun bo'ldi ketganiga, - dedi administrator ayol.
 - Qizlar-chi? - shoshib so'radim.
 - Qanaqa qizlar?
 - Anna-Mariya, Lili?
 - Ular ham ketishdi. Hammasi birga ketishdi.
 - Butunlaymi?
 - Bilmadim, har holda, bizning mehmonxonadan ketishdi.
- Bo'shashganimcha tashqariga chiqdim. Kechgacha shaharni aylandim, ammo hech qaerda uni uchratmadim. "Nega ketdi? - O'yladim o'zimcha. - Nega xayrlashmadi? Nahotki, men ham unga bir ermak bo'lgan bo'lsam?" Bu dahshatli fikr miyamga keldiyu, jahlim chiqqa boshladi. "Yengiltak, bag'ri tosh qiz!" - koyidim o'zimcha va uning g'ayri-tabiyy qiliqlarini birma-bir eslay boshladim. Ammo uning yomon tomonlarini qancha bo'rttirib eslayman, u men uchun aziz bo'lib qolganiga, xamma qiliqlari, gaplari shirin, yoqimli ekaniga ishondim. Bu ishonch kun sayin kuchayar va uni unutish juda og'ir bo'lismiga iqror qilardi. Yordan bilan Lada mendagi o'zgarishning sababi bosh og'rig'i emasligini sezishardi, albatta. Ammo menga bildirishmasdi. Faqat bir marta Yordan:
- Bu, bizning og'aynilar yo'q bo'lib qolishdiku-a? - dedi gap orasida.

10

Oradan bir hafta o'tdi. Bu hafta men uchun yildek tuyulib ketdi. Hech narsa tatimas, hech narsa qiziqtirmas, tezroq uyg'a ketishni istab qolgan edim. Bu haqda Yordanga ham aytdim.

- Do'stim, bu dunyoda hech narsa boqiy emas, - dedi u. - Ketarsan ham, uyingda bo'larsan ham. Ammo shu yerda o'tkazgan kunlaring umrbod xotirangdan ko'tarilmaydi. Har holda, begona yurt. Shoshma. Yana bir hafta turaylik. Neptun bayramini ko'raylik.

Yo'q deya olmadim. Chunki, men ketsam, ularning ham ketishi kerak edi.

Usha kuni tushdan so'ng Lada Mateyni uxlatgani ketdi. Yordan sohilga tushdi. U yana bir oz qoraymoqchi edi. Men tushmadim,

uxlagim ham kelmadi. Qo'lllarimni orqamga tugib, markaziy xiyobonni aylana boshladim. Oyog'im beixtiyor "Neptun" tomon boshladi. Uning yo'lkasiga endi yetganimni bilaman, orqamdan kimdir salom berdi. Tanish ovoz. Ugirildim. Lili! So'rashdik.

- Men sizning mehmonxonangizdan kelyapman, - dedi u.
- Anna-Mariya qaerda? - shoshib so'radam.
- Shu yerda. Sizga salom aytди.
- Men uni ko'rishim kerak.
- Ko'rasiz. Avval sizga aytadigan gapim bor.

Lili xoliroq joy qidira boshladi. Mehmonxona yonidagi arg'uvon tagiga o'tirdik.

- Gapiring, qulog'im sizda! - men shoshilardim.
- Anna-Mariya hozir siz bilan uchrashganimni bilmaydi. Gap shundaki... - Lili o'ylanib qoldi. Aftidan, u nimadandir xijolatda edi.
- Gap shundaki, Anna-Mariya sizni sevib qolgan...
- Nega qochib ketdi bo'lmasa? - hayron bo'ldim men.

- Buning sababli ko'p. e'tibor bergen bo'lsangiz kerak? U juda g'alati, - gapida davom etdi Lili. - Men o'zim ham ilgarilari unga hayron bo'lardim. Lekin uning hayoti bilan tanishgach, tushuna boshladim. Uning otasi yo'q, to'g'rirog'i, otasi bor-ku, lekin yo'kdek. U urush farzandi... Onasining azoblari, o'zining g'ussali hayotidan o'sha odamga nafrati shu qadar kuchlik, birov uning tilida gapirsa, jig'ibiyroni chiqib ketadi. Buning ahmoqlik ekanini, hech kimda ayb yo'qligini biladi, lekin ba'zida o'zini tutolmaydi. Tuyaga xuruji esingizdam? Tuyada ham, fotografda ham hech gunoh yo'q edi...

Men Lilining gaplaridan hech narsa tushunmadim. U esa ochiq aytishdan yo cho'chirdi, yo uyalardi.

- Biz hammamiz urush yillari tug'ilganmiz.
- Biz boshqa gap, Aziz, - dedi Lili. - Birinchi uchrashuvimizdayoq siz bizga yoqib qoldingiz. Mulonazali, jiddiy odam ko'rinasiz. Shuning uchun ham Anna-Mariya qiynalayotganini ko'rib, garchi, u ruxsat bermasa ham, siz bilan gaplashishga qaror qildim. Men uni urush farzandi dedim. Urush yillari onasi yolg'iz yashardi. Uning eri communist bo'lib, qamoqqa olingen, qandaydir qonslagerga jo'natilgan. Uyga esa bir nemis ofitseri joylashgan. Onasi bilan uning aloqalari qanday bo'lgan - buni ularning o'zidan boshqa hech kim bilmaydi. Lekin Vengriya ozod qilingan yili Anna-Mariya tug'ilgan. Onasining eri qaytib kelmadi. Onasi ham hali yosh bo'lismiga qaramay, boshqa turmush qurmadi. Hayotini qiziga bag'ishladi. Anna-Mariya yetti-sakkiz yoshigacha hech narsadan xabarsiz, erkin o'sdi. Ammo o'qishga boradigan bo'lganidan boshlab, unda o'zgarish yuz berdi. Bunga uning o'zi yoki onasi emas, ba'zi qo'n-i-qo'shnilar sabab bo'lismi. Anna-Mariya juda sho'x, hozir ham o'zingiz ko'rdingiz, sho'xligi qo'zib qoladi. Bolaligida o'g'il bolalar bilan teppa-teng o'ynayverar ekan. Bir kuni o'zi tengi bir bolani nima uchundir uribdi. Bola yig'labdi. Onasi kelib, Anna-Mariyani urishibdi. "Ha, fashistning urug'i! O'zingni ko'rsatysapsanmi!" - debdi u. Anna-Mariya bu gapning ma'nosiga avval tushunmapti. Uyga kelib onasiga aytib beribdi. Onasi uni ovutibdi, ammo o'zini tutolmay yig'labdi. Anna-Mariya o'z hayotida nimadir chatoqligini shunda anglabdi va otasini so'rabdi. Ona o'z erini aytibdi, suratini ko'rsatibdi. "Dadang fashistlar qo'lida o'lgan, u yaxshi odam edi", - debdi.

Anna-Mariya ertasiga kaltak yegan bolaning uyiga boradi.

- Mening dadam kimligini bilasizmi? - deydi g'azab bilan u.
- Kim ekan dadang? - kinoya bilan so'raydi bag'ri tosh ayol.
- Dadam fashistlar qo'lida o'lgan!
- Shunday de? - ayol kuladi. - Oying yaxshi ertak to'qibdi. Borib so'ra, yubkasining tagida yashagan nemis kim ekan!
- Oyimni haqorat qilmang! - deydi Anna-Mariya yig'i aralash va qo'lidagi papkasini ayloga otadi.
- Shu kuni u o'zining kimligini biladi. Onasidan uyaladi, o'rtoqlaridan, o'zidan uyaladi. Onasi bechora uni qanday qilib ovutishni bilmaydi. Anna-Mariya boshqa mакtabda o'qiy boshlaydi. Asta-sekin u o'z ahvoliga ko'nikadi. Ammo odamovi bo'lib o'sadi. Hammadan qochadi, ko'p vaqtini uuda o'tkazadi. Ayni vaqtda, unda mag'rurlik, o'z tengqurlarini mensimaslik kayfiyatları paydo bo'ladi. U yaxshi o'qyidi, yangi mакtabda unga juda yaxshi munosabatda bo'li-shadi. To'qqizinchı sinfdı o'qib yurgan paytları, bir kuni o'qishdan qaytsa, eshiklari tagida baland bo'yli, basavlat bir odam turgan ekan.
- Sizga kim kerak? - so'rabi Anna-Mariya.
- Men frau Xorvatni ko'rmoqchi edim, - debdi begona kishi nemis tilida.
- Ishdalar. Hozir keladilar. Men qizlari bo'laman. Uyga kiring.
- Qizlari? - begona kishi unga tikilib qolibdi.
- Ha. Anna-Mariya. Yuring.

Anna-Mariya uni uyga olib kiribdi. Kofe tayyorlaguncha onasi kelibdi. O' begona kishini ko'ribdi-yu, turgan joyida qotib qolibdi.

- Erix?!
- Ha, - begona kishi jilmayib o'rnidan turibdi.
- Nega kelding? - do'q qilibdi Anna-Mariyaning onasi. - Anna-Mariya! Chiqib tur!
- Anna-Mariya hech narsaga tushunmay, qo'shni xonaga chiqadi. Onasi uning ketidan eshikni yopadi. Ammo ularning gapini u eshitadi.
- Nega kelding? - so'radi yana onasi.
- Tinchlan, Eliza, - deydi begona kishi yalinib. - Tinchlan. So'nggi uchrashuvimizga o'n olti yil bo'ldi. Ko'rgani keldim. Biz, axir, yaqin edik...
- Buni endi ahamiyati yo'q. O'shanda qol, taslim bo'l, dedim. Ko'nmading.
- Men ofitser edim, Eliza.
- Nega kelding?
- Ko'rgim keldi. Anna... Anna-Mariya katta qiz bo'libdi.
- Unga sening haqqing yo'q. U mening qizim.
- Bilaman. Men uni faqat ko'rmoqchi edim. Eliza, unga sovg'a olib kelganman. Shuni berishga ruxsat et.
- Eliza xola zo'rg'a rozi bo'libdi. Qizini chaqiribdi. Begona kishi unga ancha tikilib o'tiribdi. Keyin ko'rgan bo'lsangiz kerak, Anna-Mariyaning qo'lida katta yoqut ko'zli uzuk bor, shuni beribdi. Hamma gapni eshitgan Anna-Mariya yig'laganicha uydan chiqib ketibdi. Shu kuni ona-bola mijja qoqishmabdi. Oradan ko'p vaqt o'tmay, Anna-Mariyaning nomiga KyolKjndan xat kelibdi. Otasidan ekan. "Anna-Mariya, - deyilgan ekan unda, - bilaman, sen meni yomon ko'rasan. Meni deb ko'p azob chekding. Ammo men o'z gunohimni yuvish uchun hamma narsaga tayyorman. Seni olib ketish niyatida uylaringga borgan edim. Lekin gapimiz

qovushmadi. Onang rozi bo'lindi. Sen endi kattasan. O'zing kel. Men senga butun dunyoni ko'rsataman. Parij, Rim, London... Faqat, xo'p desang bo'ldi. Xatingni kutaman". Anna-Mariya javob yozmadi. Onasiga ham xatni ko'rsatmadi. Ammo tun bo'yи alahlab chiqdi. Shundan keyin ularning aloqasi uzildi. Chunki, Anna-Mariya bu paytda katta qiz, yaxshi-yomonning farqiga boradigan bo'lib qolgan edi. Unga kim kerak? Butun umrini unga bag'ishlagan onami, yo begona bir odammi? Albatta - ona! Ammo u o'zgarib qoldi. Sal narsadan jahli chiqadi, o'zidan-o'zi yig'laydi, ko'p o'ylaydi. Buning ustiga bir yigit uni haqorat qilib, unda odamlarga ishonchszilik tug'dirdi.

- Nima qilib? - so'radim men. Lili xo'rsindi:

- Anna-Mariya chiroyl qiz. Uning xushtorlari juda ko'p bo'lgan. Hozir ham ko'p. Lekin o'sha paytlari bir yigitga ko'ngil qo'ygan. Aloqalari ancha chuqurlashgach, Anna-Mariya unga o'z hayotini aytib bergan. Shu kundan boshlab, yigit unga ko'rinish bermagan. Juda ezildi. Unga qo'shilib, onasi ham ezildi. Bechora, o'zini qizi oldida gunohkor hisobladi-da. To'rt yildan beri men Anna-Mariyani bilaman. Bir liniyada ishlaymiz. Shu payt ichida ko'p yigitlar unga muhabbat qo'yishdi. Lekin u o'zini olib qochdi. Hech qaysisiga ishonmadi. Sizga ham ko'rinoqchi emas. Hatto, Budapeshtga ketib qolmoqchi edi. Bir amallab olib qoldik. U hozir jinni odamga o'xshaydi... Borasizmi?

- Ha, - dedim. - Yuring.

- Biz Bay Yeftimning uyida turibmiz, - dedi Lili sevinib o'rnidan qo'zg'alar ekan.

11

Bay Yeftimning uyi Zlatni Pyassining eng chetida ekan. Pastak taxta panjara bilan o'ralgan hovli. To'rida ikki qavatl oq uy. Ichkariga kirdik. Lili burama zina tagiga kelib qichqirdi.

- Anna-Mariya!

Hech kim javob bermadi. Yuragim dukillab ura boshladi.

- Anna-Mariya! - qichqirdi yana Lili.

Ikkinci qavatdag'i deraza ochildi, kimdir mo'raladi-da, keyin sharaqlatib derazani yopdi.

- Tepada u! - dedim hovliqib.

- Hozir.

Lili chopib, tepaga chiqib ketdi. Qancha vaqt o'tdi, bilmayman. Yuragim dukillab urishdan to'xtamas, xayolimda ming xil fikrlar uymalashardi. "Topdim! Topdim! Endi u men bilan!" - derdim o'zimcha sevinchim ichimga sig'may.

Bir mahal tepada oyoq tovushlari eshitildi. Qaradim. Anna-Mariya ko'zlaridan nur yog'ilib, o'zining ajoyib tabassumi bilan menga qarab turardi.

- Anna-Mariya!

U pastga yugurdi. Tusha solib, bag'rimga otildi.

- Anna-Mariya!..

U nam ko'zlarini bo'yninga surtar, allanimalar deb shivirlardi.

- Biron yoqqa ketamizmi?

U boshini qimirlatdi. Eshikka chiqdik. Ro'paradagi restoran oldida ikki otli fayton turardi. Chaqirdim.

- Chetga! Shahardan chetga!

Izvoshchi otlarga qamchi bosdi. Fayton uchib ketdi. Men Anna-Mariyadan ko'z uzmasdim. Qo'llaridan, mast qiluvchi sochlardan, yuzlaridan o'pardim. Ikkalamiz o'zimizda yo'q shod edik.

Kechqurun hamma do'stlarimizni yig'ib, Bay Yeftimning bariga tushdik. Keksa dengizchi o'zining oshpazlik mahoratini yana bir bor ko'rsatdi.

- Tabriklayman, - dedi Yordan qo'limni siqib.

U ham, hamma ham xursad edi. Anna-Mariya ilgarigidek ochilib ketgan, dam men bilan, dam Dragomir bilan, dam Mateni ko'tarib olib raqs qilar, sho'x latifalar aytib, hammamizni kuldirardi.

Barda tonggacha o'tirdik. Keyin, Bay Yeftimning uyiga bordik. Bolgar odati bo'yicha, u, sopol idishlarga qo'l bola vino quyib chiqdi.

- Baxtli bo'linglar, - dedi u. - Sizlarni ko'rib, men ham yosharib ketdim.

Tushda uchrashishga va'dalashib, tarqaldik.

Xonamga ko'tarilib, karavotga o'zimni tashladimu, dong qotdim. Necha kunlardan beri bunchalik qattiq va shirin uxlamagan edim. Ko'zimni ochganimda kimdir zarb bilan eshikni taqillatardi. Uyqusirab borib ochdim. Dragomir bilan Lili.

- Kechiring, bezovta qildik, - dedi Dragomir, u nimadandir xavotirda edi, - Anna-Mariya kelmadimi?

- Yo'q, - dedim men qo'rquv aralash.

- U yo'q. Chamadoni ham yo'q.

Men qotib qoldim. Pastdan Yordan ko'tarildi.

- Kelmaptimi?

- Yo'q.

- Aeroportga borish kerak, - dedi Yordan. - Yuringlar.

Shosha-pisha kiyinib, pastga tushdik. Keyin Yordanning mashinasida aeroportga jo'nadic. Aeroportda u yo'q edi. Varna - Budapesht samolyoti bir soat burun uchib ketibdi. Dragomir kassaga borib, uni surishtirdi. Bo'shashib qaytdi. Ha, u shu samolyotda uchib ketibdi. Men nima qilishimni bilmay, gandiraklab aeroportdan chiqdim.

- Xavotir olma, - dedi Yordan. - Qandaydir maqsad bilan uyiga ketgan. Adresni bilamiz, balki, o'zi ham xabar berar.

Lili ham shunday dedi, hatto hoziroq telegramma yuborishini aytidi. Qaytdik. Mehmonxona oldida Bay Yeftim turar edi.

- Mana buni u turgan xonadan topdim, - dedi u Dragomirga qog'ozga o'rog'lik bir narsa bilan konvert uzatar ekan.

Dragomir shoshib konvertni yirtdi. "Lili, Mircho! - deyilgan edi unda. - Boshqa ilojim yo'q. Uchrashguncha xayr. Anna-Mariya".

Xatning tagida ilova bor edi:

"B ...Mircho, mana shu zajigalka bilan xatni Azizga ber. Iltimos".

Dragomir konvertdagi ikkinchi qog'ozni menga uzatdi.

"Aziz, meni kechiring. Xayrashmadim. Shu ma'qul. Men sizga baxt keltira olmayman. Takdirim shunday. Bu yerda o'tkazgan ajoyib kunlarimiz - mening eng baxtiyor kunlarim bo'ldi, shunday bo'lib qoladi. Meni qidirmang. Ba'zi-bazida shu zajigalkani

This is not registered version of TotalDoc Converter

yoki, men esha qiziqishga o'tdim. Eschikma tuzg'ani bosq' narsa topolmadim. Sizning chig'anog'ingiz esa, doim men bilan bo'ladi. Uni qulog'imga tutib, hayotimming eng ajoyib kunlarini eslayman. Kechalari ham yostig'im tagiga qo'yib, uni tinglayman, tovushingizni eshitgandek, nafasingizni tuygandek bo'laman. Baxtli bo'ling. Anna-Mariya".

12

Zlatni Pyassida ortiq turolmadim. Har bir toshda uning izi bordek ko'rindi, har qadamda uning ovozini eshitgandek bo'ldim. Ertasigayoq Xaskovoga jo'nadim.

Mana, o'shandan beri qancha vaqt o'tib ketdi. Undan bitta ham xat olganim yo'q. Ammo uning iltimosini bajarmadim. Qidirdim. Oradan bir yil o'tgach, uyidan "adresat ko'chib ketgan" degan javob keldi. Budapesht katta shahar, biron joyga ko'chqandir. G'alati qiz, nega do'stlariga tayin joyini bildirmaydi? Lili uning o'sha yili aeroflotdan bo'shaganini xabar qildi. Lekin u qayokda? - Ular ham, men ham bilmayman. Shundan keyin yana ikki marta Bolgariyaga bordim. U bilan borgan joylarimizni ko'rdim, dengizda cho'mildim, qoyada uzoq-uzoq o'tirib, xayolan uni quchdim, ammo o'zini qaytib ko'rmadim. Har gal papirosh chekkanimda shu zajigalkani qo'limga olar ekanman, kapalak umridek qisqa sevgimizni eslayman... "Anna-Mariya! Sog' bo'l, senga baxt tilayman".